



MARKAZIY OSIYODA YANGI XAVFSIZLIK ARXITEKTURASI: YANGI MINTAQAVIY TUZILMA VA UMUMIY TAHDIDLARQA QARSHI YAGONA YONDASHUV ZARURATI

Qosimov Muhammaddiyor

O'zDJTU, Xalqaro jurnalistika fakulteti

Xalqaro munosabatlar ta'lim yo'nalishi

3-bosqich talabasi

qosimovm020@gmail.com

ARTICLE INFO

Received: 10th August 2026

Accepted: 11th August 2026

Published: 17th August 2026

KEYWORDS

Markaziy Osiyo, xavfsizlik
arxitekturasini, umumiy tahdidlar,
MOXHT, suv-energetika xavfsizligi,
Afg'oniston, iqlim o'zgarishi,
ekstremizm, yagona yondashuv,
mintaqaviy integratsiya.

ABSTRACT

Maqola Markaziy Osiyo mintaqasida 2025–2030 yillarda shakllanayotgan yangi xavfsizlik muhitini tahlil qiladi. Afg'oniston beqarorligi, suv-energetika ziddiyatlari, ekstremizm va transmilliy jinoyatchilik, iqlim o'zgarishi hamda tashqi kuchlarning geosiyosiy raqobati kabi umumiy tahdidlarga qarshi hozirgi ikki tomonlama va ko'p tomonlama mexanizmlar yetarli emasligi asoslanadi. Yangi mintaqaviy xavfsizlik tuzilmasi – "Markaziy Osiyo Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti" (MOXHT) tashkil etish zarurati va uning asosiy prinsiplari taklif qilinadi.

2025 yilga kelib Markaziy Osiyo dunyoning eng murakkab va ko'p qatlamli xavfsizlik muhitlaridan biriga aylandi. Mazkur vaziyatni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mintaqada xavfsizlikka ta'sir qiluvchi harbiy, siyosiy, iqtisodiy va ekologik omillar bir vaqtning o'zida kesishib, barqarorlikka kompleks bosim uyg'otmoqda. Birinchidan, Afg'onistondan kelayotgan narkotik oqimining yillik hajmi 90–110 tonnani tashkil etayotgani transchegaraviy jinoyatchilikning yuqori darajada qolayotganidan dalolat beradi. Ushbu ko'rsatkich, o'z navbatida, narkotrafik mintaqada xavfsizligiga bevosita tahdid solayotganini, shuningdek, ayrim terrorchilik tuzilmalarining moliyaviy manbalarini mustahkamlab berayotganini anglatadi. Ikkinchidan, 2024 yilda terrorchilik guruhlari faolligining 42 foizga o'sishi bu tuzilmalar o'z ta'sir radiusini kengaytirayotganini ko'rsatadi va davlatlararo kontrterrorizm hamkorligini chuqurlashtirish zarurligini yuzaga chiqaradi. Uchinchidan, Amudaryo va Sirdaryo havzalarida suv tanqisligining 2030 yilga borib 35–40 foizga yetishi kutilayotgani mintaqada uchun strategik resurslarga oid raqobat kuchayishini anglatadi. Nihoyat, iqlim o'zgarishining keskinlashuvi Orol dengizining qurishini tezlashtirib, 2025 yilga kelib 1,8 million gektar qumsho'r hudud vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Ushbu ekologik inqiroz "ekologik migratsiya" ko'lamini 2,5 million kishigacha yetkazib, demografik va ijtimoiy barqarorlikka sezilarli bosimni kuchaytirmoqda.

Shu bilan birga, mintaqaning geosiyosiy konfiguratsiyasi tobora murakkablashib bormoqda. Rossiya, Xitoy, AQSh, Turkiya, Eron va Arab mamlakatlari Markaziy Osiyoda o'z ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotgani bevosita raqobat maydonini kengaytirib, mintaqada

davlatlari uchun tashqi bosimlar spektrini kuchaytirmoqda. Mazkur jarayon shuni ko'rsatadiki, global va mintaqaviy kuchlar Markaziy Osiyoni transport-logistika tuguni, energetika koridorlari markazi hamda strategik xavfsizlik hududi sifatida ko'rmoqda. Biroq, amaldagi ShHT, KXShT va ETTs kabi ko'p tomonlama mexanizmlar mintaqada oldidagi umumiy tahdidlarga to'laqonli javob bera olmayapti. Bunga ularning qarorlari majburiy kuchga ega emasligi, byudjet imkoniyatlari cheklanganligi hamda qaror qabul qilish jarayoni konsensus tamoyiliga qat'iy bog'langanligi sabab bo'lmoqda. Ushbu institutsional cheklovlar natijasida tashkilotlar tezkor reaksiya berish qobiliyatini yo'qotib, mintaqaning real xavfsizlik ehtiyojlarini qondirish borasida yetarli darajada samara ko'rsatmayapti.

2025 yildagi asosiy xavfsizlik tahdidlari va statistika omillarini ko'tib chiqamiz.

1. Afg'oniston omili

2025 yilda Afg'onistondan Markaziy Osiyoga narkotik oqimi 108 tonnani tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2021-yilga nisbatan 68%ga o'sganini ko'rsatadi. Bu Markaziy Osiyo jamiyati uchun juda katta xavf demakdir. Afg'onistondan qochqinlar soni 870 ming kishiga yetdi. Qochqinlar asosan chegariviy yaqin bo'lgan qo'shni mamlakatlarga o'tishmoqda, ya'ni Tojikiston va O'zbekiston hududlariga.

2. Suv-energetika ziddiyati

Qirg'iziston va Tojikiston GESlari tufayli O'zbekiston va Qozog'istonning qishloq xo'jaligi suv taqchilligi 2025 yilda 18 % ga oshdi

2025 yil yanvar-mart oylari o'rtasida ikki marta suv oqimi bo'yicha favqulodda vaziyat yuz berdi. Bu esa qishloq xo'jaligi industriyasiga asoslangan davlatlar uchun katta bir belgi hisoblanadi.

3. Transmilliy jinoyatchilik va ekstremizm

2025 yilda mintaqada 2 400 ta odam savdosi holati qayd etilgan

Internet orqali radikallashtirgan yoshlar soni 2020 yilga nisbatan 5 baravar oshdi

4. Iqlim va ekologik xavfsizlik

Orol fojiasi zonasi 2025 yilda 6,2 mln gektar maydonni qamrab oldi

2025 yil yozida harorat 48°C ga yetib, 420 ming odam issiqlik urishidan jabrlangan, aholining sog'lig'iga juda katta xavf tug'dirgan.

5. Tashqi aralashuv va "buyuk kuchlar" raqobati

Xitoyning "Bir kamar – bir yo'l" loyihasi bo'yicha qarz 18,4 mlrd \$ yetdi. Rossiyaning harbiy bazalari va migratsion bosim siyosati kuchaydi.

Hozirgi mexanizmlarning qog'ozda borligi va amalda yetishmovchiligi. **ShHT:** 2025 yilda 9 ta sammit o'tkazildi, lekin birorta majburiy qaror qabul qilinmadi.

KXShT: Tojikiston-Qirg'iziston chegarasidagi mojaroda (2024–2025) hech qanday amaliy yordam ko'rsatmadi.

"C5+1": faqat moliyaviy grantlar, majburiy mexanizm yo'qligi.

Taklif etilayotgan yangi tuzilma: Markaziy Osiyo Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (MOXHT) – Asosiy prinsiplar

1. Faqat 5 mamlakat + Afg 'oniston (keyinchalik kuzatuvchi sifatida)

MOXHTning tarkibi Markaziy Osiyodagi besh asosiy davlat: Qozog 'iston, Qirg 'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekistonni o'z ichiga oladi. Afg 'oniston dastlab kuzatuvchi maqomida bo'ladi, chunki uning beqarorligi mintaqaga xavf tug 'diradi, lekin siyosiy barqarorlikni tiklagach, u to'liq a 'zo bo'lishi mumkin. Bu yondashuv quyidagi afzalliklarni beradi:

Mintaqaviy muvofiqlikni oshiradi, faqat besh mamlakat o'zaro qaror qabul qilishga mas 'ul bo'ladi.

Afg 'onistonni dastlab kuzatuvchi sifatida qo'shish, beqaror sharoitlarda xavfsizlikni ta 'minlashga yordam beradi, lekin tashkilot ichida qarorlarni tormozlamaydi. Bu yondashuv mintaqaviy ishonchni oshiradi va tashqi kuchlarning aralashuvini kamaytiradi.

2. Hozirgi ko'plab mintaqaviy tashkilotlarda qarorlar konsensus tamoyiliga bog 'langan bo'lib, bu tezkor va samarali harakat qilishni qiyinlashtirmoqda. Shu sababli, MOXHT tuzilmasida qarorlar **4/6 ovoz bilan qabul qilinishi** taklif etilmoqda. Bu mexanizm mintaqa davlatlariga tezkor reaksiya berish, favqulodda vaziyatlarga samarali javob qaytarish va umumiy xavfsizlik strategiyasini amaliyotga tezroq tatbiq etish imkonini yaratadi. Natijada, MOXHTning qaror qabul qilish tizimi amaldagi konsensusga asoslangan mexanizmlardan farq qilgan holda samaradorlikni oshiradi.

Qaror qabul qilish jarayoni demokratik bo'ladi, lekin bir necha davlatning manfaati butun tashkilotni to'xtatmaydi. Masalan, favqulodda vaziyatlarda (terror hujumi, suv-energetika ziddiyati) qarorlar bir necha kun ichida qabul qilinishi mumkin, konsensusni kutish talab qilinmaydi.

3. Doimiy harbiy-siyosiy shtab Toshkent yoki Ostona bo'lishi maqsadga muvofiq. Chunki MOXHTning doimiy shtabi mintaqada xavfsizlikni nazorat qilish va tezkor reaksiya kuchlarini boshqarish uchun markaziy organ sifatida ishlaydi:

Shtab joylashuvi Toshkent yoki Ostona shaharlaridan birida bo'ladi, bu strategik joylashuv va transport yo'llari qulayligi bilan tanlanadi.

Shtab vazifalari: vaziyat monitoringi, operatsiyalarni rejalashtirish, qo'shma mashg 'ulotlar va mintaqaviy razvedka ma 'lumotlarini birlashtirish.

Doimiy shtab mintaqaviy birlashmaning samaradorligini oshiradi va favqulodda vaziyatlarda tezkor qarorlar qabul qilinishini ta 'minlaydi.

4. Yillik byudjet: har bir a 'zo 0,4 % YaIM (taxminan 1,8 mlrd \$)

Har bir davlat MOXHT byudjetiga o'z YaIMning 0,4 % miqdorida mablag ' ajratadi. Bu ajratilgan mablag 'lar tashkilot va davlatlar ravnaqiga maqsadli yo'naltiriladi va albatta tashkilotning moliyaviy mustaqilligini ta 'minlaydi va tashqi donorlarga qaramlikni kamaytiradi.

Har yili jami byudjet taxminan 1,8 mlrd \$ bo'lib, quyidagi sohalarda sarflanishi mumkin:

- 1) Chegara va narkotiklar bo'yicha nazorat tizimlari
- 2) Tezkor reaksiya kuchlari va qo'shinlarni ta 'minlanishi
- 3) Suv-energetika, ekologik va ijtimoiy loyihalar uchun.

5. Tezkor reaksiya kuchlari – 15 000 askar, bunda har bir davlat 3 000 nafar askar ajratadi. MOXHTning tezkor reaksiya kuchlari favqulodda vaziyatlarga tezkor javob berish uchun tashkil etiladi.

Kuchlar tayyorligi: terrorchilik, chegara ziddiyatlari, ekologik inqirozlar va tabiiy ofatlar bilan shug'ullanish.

Tezkor reaksiya kuchlari doimiy mashg'ulotlardan o'tadi, mintaqaviy strategiyalarni birlashtiradi va birlashtirilgan qo'mondonlik ostida ishlaydi.

Bu mexanizm mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash va tashqi tahdidlarga tezkor javob berish imkonini beradi.

MOXHTning asosiy yo'nalishlari va 2030 yilgacha kutilayotgan natijalar

No	Yo'nalish	Mexanizm	2030 yilgacha kutilayotgan natija	Taxminiy xarajat (mlrd \$)
1	Chegara va narkotiklar	Yagona chegara nazorati tizimi	Narkotik oqimi -70 %	0,9
2	Suv-energetika	Mintaqaviy suv- energiya kengashi	Suv taqchilligi -45 %, energiya almashinuvi +60 %	2,4
3	Terrorizmga qarshi	Yagona razvedka markazi va tezkor kuchlar	Terror hujumlari -85 %	1,1
4	Ekologik xavfsizlik	Orolni qayta tiklash fondi	Yangi o'rmonlar 1,2 mln ga, qum-sho'r -50 %	3,8
5	Iqtisodiy integratsiya	Bojxona ittifoqi va yagona transport koridori	Savdo aylanmasi +120 %	4,2

Muammolar va yechimlar

Muammolar:

1. Davlatlar o'rtasidagi ishonchsizlik (ayniqsa suv masalasida)

Markaziy Osiyo davlatlari, xususan Qirg'iziston va Tojikiston GESlar orqali suv oqimini nazorat qiladi, bu esa O'zbekiston va Qozog'istonning qishloq xo'jaligi va ichimlik suviga bevosita ta'sir qiladi. Tarixan suv taqsimoti bo'yicha mintaqaviy kelishuvlar doimiy ziddiyatlarga sabab bo'lgan. Ishonchsizlik faqat suv bilan cheklanmay, energetika va transport loyihalarida ham xavfsizlik tahdidlarini oshiradi.

2. Tashqi kuchlarning qarshiligi

Rossiya va Xitoy MOXHTni o'z ta'sir doirasiga tahdid deb qabul qilishi mumkin, chunki bu yangi tashkilot ularning ushbu mintaqaga siyosiy va iqtisodiy ta'sirni kamaytirishi mumkin.

AQSh va boshqa g'arb davlatlari MOXHTni regional barqarorlikni oshirish va ularni mintaqaga yanada jalb qilish vositasi sifatida ko'rishi mumkin.

Tashqi kuchlarning qarshiligi tashkilotning siyosiy mustaqilligini va tezkor qaror qabul qilish imkoniyatini cheklash xavfini tug'diradi.

Yechimlar:

1. Birinchi bosqich (2026–2028): Ushbu bosqichda MOXHTning e'tibori asosan xavfsizlikning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlariga qaratiladi.

Masalan:

Narkotiklar va chegara xavfsizligi: yagona chegara nazorati tizimi va razvedka ma'lumotlarini birlashtirish.

Terrorizmga qarshi kurash: mintaqaviy razvedka markazi va tezkor reaksiya kuchlari.

Ekologiya: Orol dengizini tiklash, qum-sho'r botqoqlikni kamaytirish, yangi o'rmonlashtirish loyihalari.

Bu bosqich davlatlar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash va tashqi kuchlarga mintaqaviy barqarorlikni ko'rsatish imkonini beradi.

2. Ikkinchi bosqich (2028–2030): harbiy-siyosiy integratsiya

Birinchi bosqich muvaffaqiyatli amalga oshirilgach, MOXHT harbiy-siyosiy sohada ham integratsiyaga o'tadi.

Tezkor reaksiya kuchlari birlashtiriladi, mintaqaviy qo'mondonlik tizimi to'liq ishlaydi.

Suv va energetika bo'yicha kelishuvlar kuchayadi, chegara va xavfsizlik masalalari bo'yicha tezkor qarorlar qabul qilinadi.

Bu bosqich mintaqaviy mustaqillik va xavfsizlikni tashqi aralashuvlarsiz mustahkamlashga imkon beradi.

Tashqi kuzatuvchilar: MOXHT faoliyatini kuzatish va maslahat berish uchun BMT, YXHT va Islom Hamkorlik Tashkiloti tashqi kuzatuvchi sifatida jalb qilinadi. Bunda kuzatuvchilar - qarorlar qabul qilish jarayonini shaffof qiladi, mintaqaviy nizolarning xalqaro standartlarga muvofiq hal qilinishiga yordam beradi, tashqi kuchlarning bevosita aralashuvini kamaytiradi.

2025 yil Markaziy Osiyo uchun tanlov yili bo'ldi: yoki davlatlar umumiy tahdidlar oldida birlashib, o'z xavfsizlik arxitekturasini quradi, yoki tashqi kuchlarning "bo'lib boshqar" siyosati mintaqani uzoq muddatli beqarorlikka olib keladi.

Yangi mintaqaviy tuzilma – MOXHT – nafaqat xavfsizlikni ta'minlaydi, balki iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirib, 2035 yilga borib Markaziy Osiyoni dunyodagi eng tez rivojlanayotgan 10 mintaqadan biriga aylantirishi mumkin.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, kichik davlatlar faqat o'zaro birlashish orqali o'z taqdirini mustaqil va samarali ravishda belgilay oladi. Markaziy Osiyo kontekstida bu prinsip ayniqsa dolzarb bo'lib, mintaqaviy xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik va siyosiy mustaqillikni ta'minlash uchun hamkorlik zaruriyatini ko'rsatadi. Shu sababli, mintaqada davlatlari o'rtasida birlashish va integratsiyani kuchaytirish ayni vaqtda eng maqsadga muvofiq strategik qaror sifatida qaralishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Montesquieu, Charles. *L'Esprit des Lois*. Paris: Garnier-Flammarion, 1979. – P 65–120. URL: <https://philo-labo.fr/fichiers/Montesquieu%20-%202004%20L'esprit%20des%20lois.pdf>

2. Richards, E. *The Rise of the Enlightenment in France*. Oxford University Press, 2002. – P 88–140. URL: <https://utoronto.scholaris.ca/bitstreams/1a4f6114-da4c-4631-8dfc-a0756f79fe39/download>
3. Baker, K. *Inventing the French Revolution*. Cambridge University Press, 1990. – P.50–95. URL: <https://books.google.com/books/about/Inventing the French Revolution.html?id=oxjCKqzNTWMC>
4. Shmurlo, E. *Ocherki po istorii Frantsii XVIII veka*. Moskva: Nauka, 1985. – P. 112–160. URL: <https://books.google.com/books/about/%D0%A4%D1%80%D0%B0%D0%BD%D1%86%D1%83%D0%B7%D1%81%D0%BA%D0%B0%D1%8F%D0%B2%D0%A0%D0%BE%D1%81%D1%81%D0%B8%D0%B8.html?id=VqiPgAACAAI>
5. Cassirer, E. *The Philosophy of the Enlightenment*. Princeton University Press, 1951. – P.100–155. URL: <https://press.princeton.edu/books/paperback/9780691143347/the-philosophy-of-the-enlightenment?srltid=AfmBOoqPtsFayEpF7Y2MykoXrymuz0v7lpPAqbXfr4f6czVTq1d66p2t>
6. Hazard, P. *La pensée européenne au XVIIIe siècle*. Paris: Fayard, 1961. – 70–118-P. URL: <https://archive.org/details/lapenseeeurop00haza>
7. Starobinski, J. *Montesquieu et la tradition politique*. Paris: Gallimard, 1983. – P. 40–85. URL: <https://ur.bc.edu/system/files/2025-04/bc-ir108951.pdf>
8. UNODC. *World Drug Report*. URL: <https://www.unodc.org/unodc/en/data-and-analysis/wdr.html>
9. Avg'onistonda giyohvandlarning record soni qayd etildi. URL: <https://oz.sputniknews.uz/20220102/afgonistonda-giyohvandlarning-rekord-soni-qayd-etildi-22056604.html>
10. World Bank. *Central Asia Water & Energy Analytic Reports*. URL: <https://www.worldbank.org/en/region/eca/brief/central-asia-water-energy>
11. World Bank. *Climate Change Knowledge Portal – Central Asia*. URL: <https://climateknowledgeportal.worldbank.org/region/central-asia>
12. Kemalar va yol tashabbuslari. URL: <http://m.srcyrl.smartnewenergy.com/news/belt-and-road-initiative-7036890.html>
13. Shanghai Cooperation Organisation (SCO). *RATS Security & Counter-Terrorism Publications*. URL: <https://www.sco-rats.org>
14. Orol dengizi sathining pasayishi. URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Orol_dengizi_sathining_pasayishi